



SCIENCE BOX

**QISHLOQ XO'JALIGIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI
TASHKILOTLARNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MUAMMOLARI
VA ULARNI XAL QILISH MASALALARI**

Dehqonova Sevarahon Fatxitdin qizi

Agrobiznes va Marketing kafedrasi assistenti

Faxriddinova Dilobar Botirjon qizi

Iqtisodiyot ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti, safida23@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatuvchi Agroservis MTP larning bugungi kundagi muammolari, yangi texnikalarni boshqarish bo`yicha kamchiliklar hamda ularni hal qilish masalalari haqida takliflar berilgan.

Kalit so`zlar: Muqobil Mashina Traktor Park, suv iste`molchilar uyushmalari, konsalting, kredit, lizing, raqobat, kolkulyatsiya, texnik progress.

Respublikamizda Fermer xo`jaliklariga samarali xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish bo`yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasida bugungi kunda mamlakatimizda 1641 ta Muqobil Mashina Traktor Parklari, 1504 ta Suv Iste`molchilar Uyushmalari, 1357 ta Yoqilg`i Moylash Maxsulotlari va 915 ta mineral o`g`it sotish shoxobchalari o`z faoliyatini olib bormoqda,

Bundan tashqari fermer xo`jaliklariga yaqin joylashgan 1293 ta minibanklar ham mavjud , 346 ta qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash, 25910 ta zotli mollar sotish va zooveterinariya xizmatlari, 341 ta axborot ta`minoti va konsalting shoxobchasi, 115 ta transport xizmati ko`rsatish, 143 ta tara idishlar tayyorlash va qadoqlash bo`yicha shoxobchalar faoliyat ko`rsatib kelmoqda.

Respublikada fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi mtplar va mmplarni o`z faoliyatini rivojlantirishi uchun bir qancha muammolar qiyinayotgani sir emas albatta shulardan Viloyat fermer xo`jaliklarining MTP va MMTPlardan ko`rsatilgan xizmatlarga to`lov berilmaganligi tufayli qarzdorlik masalasi hal qilinmasdan qolib ketmoqda. Neft mahsulotlari, mineral o`g`it va o`simgiliklar himoyasidan ham qarzdorlik mavjud. Bu infratuzilma tashkilotlari xizmatning past bo`lishiga asosiy sabab hisoblanadi.

Fermer xo`jaliklari uchun MTP va MMTPlarda ijradagi texnikalarning yetishmasligi kuzatilib oqibatda mavsum paytida fermer xo`jaliklarida birmuncha texnika ishlari bilan muammolar yuzaga kelmoqda.

Yurtimizga chetdan keltirilayotgan texnikalarni ta`mirlash uchun mutaxassislarning yetishmasligi sababli texnika olib kelingan davlatdan ta`mirlash uchun mutaxassislar olib kelinmoqda bu esa o`z navbatida tashkilot uchun qo`shimcha xarajatlarni keltirib chiqarayabdi. Yurtimizga olib kelingan Zamonaviy texnikalarga o`rnatalgan jps qurilmalari ishlashi va xar bir bajarilayotgan ishlarni ushbu qurilma yordamida kuzatib boorish uchun tumanlarda internet sifatini pastligi bois kuzatuv ishlarni amalga oshirishning imkoniy yo`q



SCIENCE BOX

Yangi texnikalardagi jps qurilmalarini boshqarish uchun tayinlangan operatorlarining aloxida shu qurilmalar bo'yicha o'qitilmaganligi sababli operatorlar bu qurilma bilan ishslashda qator muammolarga duch kelmoqda va oqibatda juda ko'plab texnikalarning jps qurilmalari ishdan chiqish holatlari kuzatilmoqda.

Prezidentimizning 2018 yil 4-yanvardagi PQ-3459 sonli qaroriga binoan qishloq xo'jalik texnik darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirdlari to'g'risidagi qaroriga asosan Andijon viloyatga 312 ta texnika olib kelingan. Lekin lizing va kredit to'lovlaari qimmatligi sababli to'lovga layoqatsizlik vujudga kelmoqda bunga asosiy sabablarda yana biri tashkilotning ko'rsatayotgan xizmatlarining baxosini pastligidir.

Respublikadagi juda ko'plab MTP va MMTPlar texnikasi banklar tomonidan fermer xo'jaliklariga sotib yuborilmoqda. Bu esa MTPlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmokda.

Respublikadagi vazirlilikda o'rnatilgan tartibda narx belgilanadi, ya'ni kalkulyatsiya tasdiqlanadi. Ta'mirlanayotgan texnikalarni extiyot qismlari qimmatligi sababli mablag' ko'p sarflanadi va natijada ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun belgilangan narx pastligi tufayli kredit va lizing to'lovlarini amalga oshirishga mablag' yetmay qolmoqda.

Avvalambor ushbu muammolarni bartaraf etishda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini boshqarishda xodimlar malakasini oshirish, texnikalar uchun kredit va lizing foizlarini pasaytirish, chetdan texnika olib kelinishi uchun to'lovlarini dollar kursida emas balki milliy volyuta so'mda to'lab borishiga yo'l ochib berilishi lozim. Bu sohani takomillashtirishda raqobat muhitini yuzaga keltirishga yo'l ochish kerak va texnik progress asosida yangi xizmatlar turlarini o'zlashtirishni rag'batlantirish zarur deb xisoblayman

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'rnilasining statistic ma'lumotlari.
2. Umurzoqov U.P. Puti povisheniya effektivnosti ispolzovaniya resursnogo potentsiala agrarnogo sektora ekonomiki (na materialax Respublikи Uzbekistan). Dis. iqt. fan. dok. – T: O'zBIITI, 2003.
3. A.Ismoilov., O.Murtazoyev.(2005) "Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti". Darslik. Samarqand.
4. www.reviyew.uz – Ekonomicheskoe obozrenie jurnalining rasmiy sayti
5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari ma'lumotlari: milliy bazasi

